



**O'QUVCHILARDA MILLIY MUSIQA CHOLG'ULARI
VOSITASIDA INTELEKTUAL QOBILYATLARNI
TARBIYALASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

Mamatov Mashrab Norbek o'g'li

Respublika musiqa va san'at texnikumi bosh o'qituvchisi,

Qori Niyoziy nomidagi TPMI mustaqil izlanuvchisi

mmashrab446@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17626897>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 15-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 17-noyabr 2025 yil

KEYWORDS

*intelektual qobiliyat, milliy musiqa
cholg'ulari, musiqiy tafakkur,
kognitiv rivojlanish, pedagogik
shart-sharoitlar*

ABSTRACT

Ushbu maqolada milliy cholg'ulari va musiqasi vositasida o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Intelektual rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi musiqiy-kognitiv omillar aniqlangan. Tadqiqot natijasida motivatsion, didaktik, metodik, va muhitga oid shart-sharoitlarni birlashtiruvchi pedagogik model taklif etilgan.

Globalashuv davrida ta'lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biri – o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning fikrlash, tahlil etish, ijod qilish hamda muammo yechimini topish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Shu nuqtayi nazardan, musiqiy ta'lim, ayniqsa milliy musiqa cholg'ulari asosidagi mashg'ulotlar o'quvchilarda kognitiv jarayonlarni faollashtiruvchi samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki har bir xalqning musiqiy tafakkur va tasavvuri o'ziga xos bo'lib, ana shu o'ziga xoslik natijasida musiqa va cholg'ular yaratiladi.

Musiqaning xotira, diqqat, mantiqiy fikrlash, assotsiativ tafakkur va ijodiy tasavvurni rivojlantirishdagi o'rni ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan¹. Milliy cholg'ular esa o'zining madaniy-kognitiv mazmuni bilan intellektual rivojlanishda qo'shimcha omil sifatida qaraladi. Shu sababli milliy musiqa cholg'ulari vositasida intellektual qobiliyatlarni tarbiyalashga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash muhim sanaladi.

Pedagogik shart-sharoitlarning asosiy komponentlari quyidagilar:

1. Motivatsion sharoitlar – milliy cholg'ularning o'ziga xos xususiyatlari: yaralish tarixi, tembr xususiyati, milliy o'ziga xosligini anglatish;
2. Didaktik sharoitlar – intellektual fikrlashni rag'batlantiruvchi topshiriqlar: ohangni qaytarish, ritmni tanish, lادلarni solishtirish, ijro texnikasini tahlil qilish, "Eshit – tahlil qil – ijro et" modeli;

¹

Кабалевский Д. Как рассказывать детям о музыке. – М.: Просвещение, 1985. – 192 с; Яворский Б. Основы музыкального восприятия. – М.: Музыка, 1972. – 240 с; Schlaug G., Norton A., Overy K., Winner E. Effects of music training on the child's brain and cognitive development. The Neurosciences and Music II: From Perception to Performance, 1060, 2005. – 219 – 230 p; Lehmann A., Sloboda J., Woody R. Psychology for musicians. – New York: Oxford University Press, 2007; Xasanov A. Musiqi avasi tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1993; Murodova D. Musiqiy ong va tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent, 2021 yil.

3. Metodik sharoitlar – interfaol metodlar: musiqiy muammoli vaziyat, klister, Venn diagrammasi, konseptual xarita;

4. Muhit sharoitlari – musiqiy cholg'ular bilan jihozlangan, akustik talabga javob beruvchi xona muhiti, individual va guruhli darslar.

XX asr musiqa pedagogikasida E.Gordon tomonidan ritmik idrok testi (Gordon rhythm aptitude test) ishlab chiqildi². Ushbu test o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, ritmik idrok va eshitish qobiliyatlarini baholashda eng samarali usul sifatida e'tirof etilgan. Quyida ushbu test turi 7–8 yosh oralig'idagi o'quvchilarda eksperiment o'tkazish maqsadida milliy musiqa cholg'ulari uchun xos bo'lgan usullar integratsiyasida yaratildi: Bunda bir necha ritmik ketma ketlik o'quvchiga eshittiriladi va "bir xil" yoki "farq qiladi" shaklida javob berishi so'raladi.

1. A: ♪ ♪ ♪ ♪ (Lapar)

B: ♪ ♪ ♪ ♪

To'g'ri javob: Farq qiladi

2. A: ♪ ♪ ♪ ♪ (5/8)

B: ♪ ♪ ♪ ♪ (5/8)

To'g'ri javob: Bir xil

3. A: ♪ ♪ + ♪ ♪ ♪ (5/8)

B: ♪ ♪ + ♪ ♪ ♪

To'g'ri javob: Bir xil

Savollar 40 ta tuzilib, baholash mezonlari asosida baholanadi:

Baholash mezonlari

36 – 40 – Juda yuqori ritmik idrok

30 – 35 – Yaxshi rivojlangan ritmik idrok

20 – 29 – O'rtacha

10 – 19 – Past rivojlangan ritmik idrok

0 – 9 – Juda past ritmik idrok

Ushbu tadqiqotda o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini aniqlash, xususan, idrok bilan bog'liq jihatlarini tashxislash maqsadida E.Gordon tomonidan yaratilgan ritmik idrok testi o'zbek milliy musiqa usullariga moslashtirildi va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Eksperiment natijasida o'quvchining quyidagi jihatlarini ham baholanadi:

- Diqqat ko'rsatkichi;
- Eshitish ko'rsatkichi;
- Xotira ko'rsatkichi;
- Ritmik idrok ko'rsatkichi;
- Ijodiy tafakkur ko'rsatkichi.

Olingan natijalar milliy cholg'ular umumiy musiqiy ta'sirdan tashqari:

- Milliy-madaniy kontekst;
- Usul va ladlarning murakkabligi;
- Impravizatsiya imkoniyatlari kabi qo'shimcha didaktik ustunliklarga egaligini ko'rsatadi.

² Gordon E. Learning Sequences in Music: A Contemporary Music Learning Theory. – Chicago: GIA Publications, 1997. – 340 p.

Ushbu usul orqali o'quvchilarning intellektual qobiliyatlari tashxislanadi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatiladi. Shuningdek, tartibli ritm, motor harakatlari va eshitish faoliyatiga ham ijobiy ta'sir etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Gordon E. Learning Sequences in Music: A Contemporary Music Learning Theory. – Chicago: GIA Publications, 1997. – 340 p.
- 2.Кабалевский Д. Как рассказывать детям о музыке. – М.: Просвещение, 1985. – 192 с.
- 3.Lehmann A., Sloboda J., Woody R. Psychology for musicians. – New York: Oxford University Press, 2007.
- 4.Murodova D. Musiqiy ong va tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent, 2021.
- 5.Schlaug G., Norton A., Overy K., Winner E. Effects of music training on the child's brain and cognitive development. The Neurosciences and Music II: From Perception to Performance, 1060, 2005. – 219 – 230 p.
- 6.Яворский Б. Основы музыкального восприятия. – М.: Музыка, 1972. – 240 с.
- 7.Xasanov A. Musiq avval tarbiya. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.



INNOVATIVE
ACADEMY